

IMOM ABU MANSUR MOTURIDIY VA KALOM ILMINING SHAKLLANISHI

Yuldoshova Feruza Akram qizi*Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining**tarix yo'nalishi 4-bosqich talabasi*yuldoshovaferuza8@gmail.com

+998993770311

Annotatsiya: *Mazkur maqolada islom tafakkuri tarixida muhim o‘rin tutgan buyuk mutakallim Imom Abu Mansur Moturidiyning hayoti, ilmiy faoliyati hamda kalom ilmining shakllanishi ilmiy jihatdan tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *“Kitob at-tavhid”, “Ta’vilot al Qur’on”, Hanafiylik, Imamul huda, Imomul mutakallimin, Moturid, Abul Muin an-Nasafiy, “Tabsirat al- adilla”, Movarounnahr.*

Kirish

Jahonda mutakallimlar imomi Abu Mansur Moturidiyning falsafiy merosi va moturidiylik ta’limotining asl mohiyatini tadqiq etishga zaruriyat ortib bormoqda. Chunki bugungi kunda insoniyat olamida radikallashuvning keskin tus olib, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanuvchi kuchlar ta’sirining ortib borishi va natijada diniy tusdagi siyosiy nizolarning kelib chiqishi yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, o‘zining falsafiy qarashlarida diniylik va dunyoviylik uyg‘unligini ta’minlab, kalom ilmida mo‘tadillikni yoqlab, o‘z mulohazalarini aqliy va naqliy dalillar asosida yoritib bergan, IX asrdayoq Movarounnahr diyorida butun ahli sunna val jamoa aqidasiining Hanafiylik yo‘nalishini davom ettiruvchi buyuk yo‘lboshchisiga aylangan Imom Abu Mansur Moturidiyning ilmiy merosini o‘rganish hamda uning “Kitob at-tavhid” va “Ta’vilot al Qur’on” asarlarida shaxsning ma’naviy fazilatlarini yuksaltirishga, diniy e’tiqodni mustahkamlashga xizmat qiladigan g‘oyalarini jamiyat hayotiga to‘g‘ri tadbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda Imom Moturidiy ilmiy merosini o‘rganish bo‘yicha dunyoning bir qator nufuzli universitetlari hamda ilmiy tadqiqot markazlarida ilmiy tadqiqot faoliyatlari amalga oshirilmoqda.

Islom olamida “Imamul huda” (Haq yo‘lida hidoyatga boshlovchi Imom), “Imomul mutakallimin” (kalom olimlarining Imomi), “Raisul ahlus sunna” (ahli sunna va jamoati raisi) va “al-mutakallim as-Samarqandiy” (Samarqandlik kalom ilmi Imomi) kabi sharaflil nomlar ila sarafroz etilib, mashhuru manzur bo‘lgan Imom Abu Mansur al-Moturidiy ilmida, islomda, shariatu ehyoda va sunnati soniyada nihoyatda beqiyos xizmatlari uchun ham katta shuhrat qozonganlar. O‘tgan tarixnavislar ul zotning naslu-nasablarini ansoriylardan biri, ya’ni Hazrati Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning Madina shahriga hijratlari

vaqtda, ul zoti sharifni ilk mehmon qilgan Abu Ayub Xolid ibn Zayd ibn Kulayb al-Ansoriy avlodidan ekanliklarini yozishsa-da, ota-onalari va oilalari haqida hech bir ma’lumot berishmagan. Shunday qilib, buyuk allomaning nomlari - Muhammad, kuniyalari - Abu Mansur va taxalluslari - Moturidiy (ya’ni, Moturid mavzeida tug‘ilganliklari uchundir) bo‘lgan.⁴³

Moturidiyning to‘liq ismi Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Abu Mansur al-Moturidiy as-Samarqandiy. Ulamolar orasida hurmat bilan Imom al-Moturidiy deb atalgan. Shuningdek, “Imom al-huda”, “Imom al-mutakallimin”, “Rais ahli sunna val jamoa”, “al-Imom az-zohid”, “Musahhah ahli sunna val jamoa” kabi laqablar bilan ham tanilgan. Moturidiyning nomi Samarqand yaqinida joylashgan “Moturid” qishlog‘iga nisbat berilgan.

Zubaydiy “Ithof as-soda al-muttaqin” nomli kito-bida ta’kidlashicha, u ba’zi manbalarda Moturidiyning ismidagi Mahmuddan keyin Muhammad ismi va al-Ansoriy nisbasini ko‘rgan va bu ulug‘ nisba ekanligiga e’tibor qa-ratgan.

Yana bir arab tadqiqotchisi Doktor Muhammad Ayyub Ali Moturidiyga nisbatan al-Ansoriy nisbasini qo‘llash asosli deb hisoblagan. U bunga Moturidiyning “Kitob at-tavhid” asarining bir qo‘lèzmasi hoshiyasida o‘qigan quyi-dagi jummalarni dalil keltiradi: “Imom Abu Mansur al-Moturidiy Abu Ayyub Xolid ibn Zayd ibn Kulayb al-Ansoriy avlodlaridandir. Rasululloh sallollohu alayhi va sallam Madinaga borganlarida Abu Ayyub al-Anso-riyning uyiga tushib, u yerda o‘n yetti oy yashaganlar”.⁴⁴

Moturidiy tavallud topgan va vafot etgan sanalar. Allomaning tavallud sanasi xususida ham turli ixtiloflar bo‘lgan. Aksariyat manbalarda bu sana 256/870 yil deb ko‘rsatilgan. Biroq, arab tadqiqotchisi Muhammad Ayyubning ta’kidlashicha, Moturidiy taxminan 238/853 yil atrofida tug‘ilgan. Uning e’tibor berishicha, Moturidiyning ustozlaridan Muhammad ibn Muqotil ar-Roziy 248/862 yili, Nusayr ibn Yahè al-Balxiy esa 268/881 yili vafot etgan. Agar Moturidiy 256/870 yili tug‘ilgani taxmin qilinsa, utozi Muhammad ibn Muqotil vafot etganida u hali dunèga kelmagan, Nusayr ibn Yahè vafot etgan paytda o‘n bir èshli bola bo‘lganligi kelib chiqadi. ⁴⁵ Bizning fikrimizga ko‘ra, Moturidiyning 238/853 yil atrofida tavallud topgani mantiqqa yaqinroqdir. Bunga yuqoridagi statistik ma’lumotlar ham guvohlik bermoqda. Shuningdek, Moturidiyning yana bir asosiy ustozlari Abu Nasr al-Ièdiyning (vaf. 275/889 y.) vafot etgan sanasiga e’tibor bersak,

⁴³ . Uvatov U. Buyuk allomalarimiz. – Toshkent: O‘zbekiston islom universiteti, 2002.

⁴⁴ . Karimov U. Imom Moturidiy hayoti va ilmiy merosi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010.

⁴⁵ Muhammad Ayyub. Aqidat al-islom val Imom al-Moturidiy. – B. 264-265. Yana qarang: Hazbiy. Moturidiya. – B. 96.

o‘sha paytda Moturidiy endi o‘n to‘qqiz èshga to‘lgan o‘smir bo‘lgan. Bu yoshda uning lèdiydan kalom ilmi bo‘yicha to‘liq saboq olishga ulgurganini tasavvur qilish qiyin.

Qomusiy manbalarda bizgacha Abu Mansur al-Moturidiyning ko‘plab asarlari haqidagi ma‘lumotlar yetib kelgan. Manbalarda ta‘kidlanishicha, Moturidiy uch yo‘nalishda, ya‘ni kalom, tafsir va fiqh bo‘yicha asarlar yozgan. Moturidiya ta‘limotining mashhur vakili Abul Muin an-Nasafiy “Tabsirat al- adilla” asarida Moturidiy qalamiga mansub quyidagi asarlarni ko‘rsatib o‘tgan⁴⁶:

1. “Kitob at-tavhid”;
2. “Ta‘vilot al-Qur‘on al-karim”;
3. “Kitob al-maqolat” ;
4. “Kitob radd al-avoil al-adilla lil Ka‘biy”;
5. “Kitob radd tahzib al-jadal lil Ka‘biy”;
6. “Kitob bayon vahm al-mu‘tazila”;
7. “Kitob fir radd alal qaromita”;
8. “Radd vaid al-fussoq lil Ka‘biy”;

Yuqorida nomlari keltirilgan asarlardan tashqari Moturidiyga yana boshqa ba‘zi asarlar ham nisbat berilgan. Bunga misol qilib, Abu Hanifaning “al-Fiqh al- akbar” risolasiga sharh tarzida yozilgan “Sharh al-fiqh al-akbar” nomli asarni olish mumkin. Ushbu asar ham ba‘zi manbalarda Moturidiyga tegishli deb ta‘kidlangan. Hatto Xaydarobod shahrida 1946 yil Moturidiy nomi bilan nashr etilgan⁴⁷.

Kalom ilmi VIII asrda paydo bo‘lgan va turli aqidaviy masalalarda o‘zaro tortishuv va nizolar natijasida yuzaga kelgan turli oqimlarning (xorijiylar, qadariylar, jabariylar, murjiylar) o‘zaro olib borgan bahs-munozaralari va boshqa din vakillaridan mazdaizm va xristianlarning ham yuqoridagi oqimlar bilan bo‘lgan tortishuvlari natijasida shakllanib rivojlangan. Kalom ilmi bilan mashg‘ul bo‘lgan diniy ulamolar «mutakallim» deb atalgan. Mutakallimlar aqidaviy masalalarni yechishda naqliy (Qur‘on va hadis) dalillar bilan bir qatorda o‘z tafakkurlari, ya‘ni aql-idroklariga ham suyanib ish tutganlar. Naqliy dalillarni keltirganda ham Qur‘onni sharhlar ekanlar, uni o‘zgacha tarzda tafsir qilganlar. Mutakallimlarning Qur‘onni bunday shaklda sharhlashlarini ba‘zi ulamolar tafsirning «at-Tafsir bir-ra‘y» turidan hisoblab, uni tafsir deb atasa bo‘ladi, degan fikrga kelganlar. Ammo

⁴⁶ Oqilov S. Abul Muin an-Nasafiy moturidiya ta‘limotining davomchisi // TIU ilmiy tahliliy axboroti.– 2004. – № 1. – B. 13-19.

⁴⁷ Oqilov S. Abul Muin an-Nasafiy ilmiy merosi va moturidiya ta‘limoti / Monografiya. – Toshkent: “Hyp poligraf”, 2008. – 190 6.

aksariyat ilk islom ulamolari Qur’onni bu shakldagi sharhini tafsir deb atash noto‘g‘ri, balki uni «ta’vil» deb atash kerak degan fikrni bildirganlar.

«Kalom» arabcha so‘z bo‘lib, gap, nutq, baen kabi ma’nolarni anglatadi. Kalom ilmi aslida aqoid ilmining ismlaridan biridir. Chunki aqoid ilmi o‘z tarixining turli bosqichlarida sharoit va tushunchalardan kelib chiqib, bir necha nomlar bilan atalgan. Dastlab islom ilmlarining barchasi umumiy tarzda «Islomiy ilmlar» èki «Fiqhiy ilmlar» deb atalgan. So‘ngra undan turli ilmlar (hadis, tafsir, fiqh, tasavvuf, aqoid) hosil bo‘lib, islom diniga xos ilm sifatida e’tirof etila boshlagan. Aqoid ilmi ham o‘zining ushbu nomida barqaror qolguncha turli nomlar bilan atalib turgan.

Aqoid ilmi turli davrlarda «al-Fiqhu-l-akbar», «Ilmu-l-kalom», «Usulu-d-din», «Ilmu-t-tavhid» va nihoyat so‘nggi nomi «Ilmu-l-aqoid» degan nomlar bilan atalgan.

«Ilmu-l-kalom» aqoidning eng mashhur ismi hisoblanib, «al-Fiqhu-l-akbar» ismi bilan bir asrda, ya’ni II/VIII asrda yuzaga kelgan. Chunki bu ism Imom Abu Hanifa, Imom Shofi’iy, Imom Molik va boshqalardan rivoyat qilingan⁹⁴.

Hozirgi davrga kelib g‘arb va turk sharqshunoslari ushbu ilmga nisbatan «Ilohiyat» va «Teologiya» kabi ismlarni ishlatmoqdalar. Chunki keyingi asrlarda aqoid ilmi to‘rtta tasnifga bo‘lingan: 1. Ilohiyat. Bunda Iloh va U zotga tegishli masalalar haqida bahs yuritiladi; 2. Nubuvvat. Bunda vahiy, payg‘ambarlik, rasullar va ularga tegishli masalalar haqida bahs yuritiladi; 3. Kavnièt. Bunda borliqdagi mavjud inson, farishta, jin va sababiyat qonunlari haqida bahs yuritiladi; 4. Sam’ièt. Bunda eshitish bilangina, ya’ni asosan naqlga tayanilgan holda sobit bo‘ladigan aqidalar haqida bahs yuritiladi. Bular asosan g‘ayb olamiga tegishli masalalar hisoblanadi.

Aqoidning yuqorida keltirilgan nomlariga kelsak, tarixda ularning barchasiga taalluqli asarlar bitilgan. Masalan, «al-Fiqhu-l-akbar» nomini birinchi bo‘lib Abu Hanifa qo‘llagan va shu nom bilan o‘zining aqoid ilmiga oid mashhur asarini èzgan. «Usulu-d-din» nomini birinchi bo‘lib qo‘llagan shaxs Abu-l-Hasan al-Ash’ariy bo‘lgan. Uning «al-Ibana an usuli-d-diyana» nomli asari mavjud bo‘lgan. Aqoid ilmining ushbu nomiga yana Abu-l-Mu’in an-Nasafiyning bizga ma’lum bo‘lgan «Tafsiratu-l-adilla fiy usuli-d-din» asarini ham misol keltirish mumkin. Aqoidning «Ilmu-t-tavhid» nomini esa, biz bevosita Abu Mansur al-Moturidiyning «Kitobu-t-tavhid» asarida uchratishimiz mumkin. «Ilmu-l-aqoid» nomiga esa Abu Hafs an-Nasafiyning «Aqoidu-n-Nasafiy» nomli asari èrqin misol bo‘la oladi. Aqoidning mazkur nomlari umumiy tarzda «Ilmu-l-kalom» deb atalgan va ushbu soha vakillari «mutakallim» nomi bilan e’tirof etilgan.

Kalom ilmiga oid masalalarni biz dastlab Ja’d ibn Dirham (vaf.743 y.)ning ijodida uchratishimiz mumkin. U birinchilardan bo‘lib Qur’onning vaqti-vaqti bilan yaratilgan (maxluq) degan konsepsiya, hamda insonda iroda erkinligi kabi masalalarni ilgari surgan.

Uning fikr-mulohazalarini shogirdi Jahm ibn Safvon (745 yil Marvda Xoris ibn Surayj boshchiligidagi qo‘zg‘olonda ishtirok etgani uchun qatl qilingan.) davom ettirgan. Jahm ibn Safvon keyinchalik «jahmiya» oqimiga asos solgan.⁴⁸

XULOSA

Kalom ilmining Movarounnahrda shakllanishi shunchaki nazariy ehtiyoj emas, balki mintaqadagi turli yot g‘oyalar va falsafiy oqimlarga qarshi sof islom aqidasi himoya qilish zaruriyatidan kelib chiqqanligi aniqlandi. Imom Moturidiy aynan mana shu ijtimoiy-siyosiy jarayonda muvozanatni saqlab qolgan olim sifatida namoyon bo‘ladi.

Imom Moturidiy kalom ilmida **aql va naql** (Qur‘on va Sunnat) o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta‘minlovchi o‘ziga xos maktab yaratgan. Uning metodologiyasi inson aqlini kamsitmagan holda, vahiyning oliy hakam deb bilishga asoslanadi. Bu esa islom tafakkurida ekstremal qarashlarning (faqat aql yoki faqat naqlga suyanish) oldini olgan.

Allomaning "Kitob at-tavhid" asari kalom ilmining poydevori, "Ta‘vilot al-Qur‘on" esa kalom ilmi tamoyillari asosida yozilgan ilk mukammal tafsirlardan biri ekanligi asoslandi. Ushbu asarlar moturidiylik maktabining nazariy bazasini shakllantirgan.

Moturidiylik ta‘limoti faqat Samarqand bilan cheklanib qolmay, Abul Muin an-Nasafiy kabi davomchilar sa‘y-harakati bilan butun islom olamiga yoyilgan. Bu ta‘limot asrlar davomida musulmon dunyosining katta qismi (ayniqsa, hanafiy mazhabidagilar) uchun rasmiy aqidaviy yo‘nalish bo‘lib xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Imom Abu Mansur Moturidiy nafaqat kalom ilmining asoschisi, balki islom sivilizatsiyasining intellektual salohiyatini dunyoga tanitgan buyuk mutafakkirdir. Uning ilmiy merosini o‘rganish milliy o‘zlikni anglash va sof islomiy qadriyatlarni tiklashda beqiyos ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ulrix Rudolf. Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti. – Toshkent: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg‘armasi, 2001. – 398 b.
2. Karimov U. Imom Moturidiy hayoti va ilmiy merosi. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2010.
3. Oqilov S. Abul Muin an-Nasafiy ilmiy merosi va moturidiya ta‘limoti. – Toshkent: Nur poligraf, 2008. – 190 b.
4. Uvatov U. Buyuk allomalarimiz. – Toshkent: O‘zbekiston islom universiteti, 2002.

⁴⁸ Mo‘minov A. Hanafiy ulamolarning Markaziy Movarounnahr shaharlari hayotida tutgan o‘rni va roli (II-VII/VIII-XIII asrlar): Tar. fan. dok. dis... avtoref. – T.: THU, 2003. –

5. Rahimjonov D. Abu Hafs Nasafiy. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2010. – 39 b.
6. Mo‘minov A. Hanafiy ulamolarning Markaziy Movarounnahr shaharlari hayotida tutgan o‘rni va roli (II-VII/VIII-XIII asrlar). – Toshkent: TIU, 2003.
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Aqidatut-Tahoviya sharhi. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2014.